



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА НУУЗ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2025
1/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Suleymanov R.X. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Musayev N.U. – t.f.d., prof.

Urakov D.J. – t.f.d., prof.

Xolikulov A.B. – t.f.d., prof.

Yermetov A.A. – t.f.d., prof.

Zuyev A.S. – t.f.d., prof.

Jesus Fuensanta. – t.f.d., prof

Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof.

Karamyan M.X. – psix.f.d., prof.

Rasulov A.I. – psix.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Sobirova U.F. – sots.f.d., prof.

Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof.

Miroslav Ballay – PhD, prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sadullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

Tarix

Abdulxayev E. Turksiton o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelish va shakllanish omillari	4
Atamuxammedov A. XX asr boshlarida Sovet hukumati bayramlarining shakllanishi haqida ba'zi mulohazalar	7
Jurayev N. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar	11
Kirgizov I. O'zbek musiqa san'ati rivojida ayol xonandaligi maktablari faoliyatining tarixiy negizlari.....	14
Qudratov D. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston iqtisodiyoti taraqqiyotining yangi bosqichi.....	17
Mamatov Sh. Ilk va rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qishloq tizimining ayrim xususiyatlari	20
Sayfullayev B. O'zbekiston – Hindiston: turizm yo'lida hamkorlik	23
Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik	
Abdullayev B. Intellektual tizimlar yordamida ta'lim sifatini baholashning zamonaviy usullari.....	26
Absattorov B. Nafs tushunchasining genetik belgilari va evolyutsion ko'rinishlari	29
Abulkasimova Y. Cybersecurity terminology and language learning: bridging the gap cybersecurity.....	33
Adilov S. Sport kurashida “Mubin zask” intellektual sensor texnologiyasi asosida kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini baholash	36
Aliyev N. Fan-texnika taraqqiyotining ijtimoiy-ma'naviy muhitga ta'siri.....	39
Almamatova M. Nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilini o'rganishida motivatsiyani rivojlantirish uchun interfaol texnologiyalar va o'yinlashgan yondoshuvlar.....	42
Asrakulov N. Strategic management and business development	45
Achildiyeva M. Katta ashula – an'ana va zamonaviylik	48
Ashurov A. Iqtisodiy va ekologik manfaatlar muvozanatini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish.....	51
Bayqabilova P. Pedagogik texnologiyalarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati	53
Baxodirova N. Umumta'lim maktablarida ingliz tili produktiv ko'nikmalarini o'qitishda pragmatik yondashuv.....	56
Berdaliyeva S. Ethical and philosophical analysis of the idea of the perfect human in Yusuf Khos Hajib's work “Kutadgu bilig”.....	59
Bobonorov X. Sharq allomalarining ilmiy merosi asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati	62
Bozorov A. O'quvchilarning vizual dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shartlari	65
Burxanov B. A comparative analysis and perspective of improving reading culture with the help of digital technologies.....	68
Valixanova A. Bo'lajak o'qituvchilarning molekulyar biologiyaning asosiy tushunchalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	71
G'aniyeva N. Integrativ yondashuv asosida talablarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	74
Goyibova N. Sun'iy intellektning akademik yozuvga ta'siri: yutuqlari va muammolari.....	77
Dautova B. Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni shakllantirish	80
Djalalova N. “Yoshlar estetik tafakkuri” tushunchasi buyuk faylasuf olimlar va tadqiqotchilar nigohida.....	83
Dilliyev G. Integrativ yondashuv asosida chet tillarni o'qitish dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	86
Jumayeva X. Chet tilini o'qitish jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalarining muhimligi.....	89
Jumanov E. Maktab amaliyotchi psixologlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda raqamli vositalardan foyalanish zaruriyati	92
Zaitov E. Mahalla institutini rivojlantirishda Osiyo davlatlarning tajribasi.....	95
Ziyoyev Sh. AQSHning Afg'onistondagi siyosati: Post-2021 yil o'zgarishlari va istiqbollarga doir.....	98
Kadirova D. Badiiy ijod va estetika	101
Кон О. Мотивы социального служения в структуре педагогической деятельности	104
Qarshiyeva I. Talabalarga jadidlar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatish metodikasining nazariy-metodik asoslari	107
Qaxarov E. Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari	110
Mardiyeva Sh. Tyutor faoliyati jarayonida talabani psixik xususiyatlarini aniqlashda interfaol usullardan foydalanish.....	113
Matyakubova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash sinovlariga tayyorlashda maktab tizimi bo'yicha baholashning “pull-push” diagnostika texnikasining xususiyatlari	115
Muratova D. Jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyada ekologik ideallarning o'rni va roli	118
Murodova A. Fransuz tarbiyasi: Fransiyadagi yaxshi xulqli bolalar ortidagi sir	121
Murtazayeva Sh. Integration of project management in teaching of english writing in a multi-level environment	124
Muslimova Y. Astronomiyani o'qitishda onlayn kuzatuvlarni tashkil etish va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish.....	126
Nabiyev D. Ma'lumotlar bazasi turlari va modellari	130
Najmetdinova M. “Ommaviy-madaniy tadbirlar orqali yoshlar badiiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishning ma'naviy asoslari”	133
Nazarova I., Shokirov T. Mustaqillik davrida milliy san'at taraqqiyotining xususiyatlari	136
Nalibayeva Ch. Malaka oshirish tizimida yo'riqchilarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish	139
Namozova D. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik omillari	141
Nasrullayev T. Rahbar kadrlarning strategik boshqaruv kompetentligini takomillashtirishda sun'iy intellektdan foydalanish ..	144
Nizomova O. Mahabxorat dostonidagi ontologik masalalar tahlili	147
Nishonov S. The issue of achieving perfection through the “master-disciple” relationship in eastern philosophy.....	150
Nishonov F. Iqtisodiyot yo'nalishlarida ixtisoslik fanlarini o'qitishning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish.....	153
Nomonjonov B. Musiqa madaniyati fanini o'qitishda samarali texnologiyalardan foydalanish	155
Nurmatova Sh. Ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini baholash metodikasini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar	158
Oblomuradova X. Ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan samarali foydalanishning o'ziga xos jihatlari	161
Omonov B. Etnik nizolarning markaziy osiyo davlatlari geosiyosiy munosabatlariga ta'siri	164
Rajabov J. Jamiyat modernizatsiyalashuvi sharoitida fuqarolar siyosiy ongi xususiyatlari	167
Rajapova E. Yoshlar tadbirkorligi va uning ijtimoiy differensial jihatlari.....	171
Rahimov N. Markaziy Osiyo allomalarining fatvo ilmi rivojiga qo'shgan hisssasi	174
Rakhimov S. The effectiveness of interactive methods in ensuring the development of lexical competence in medical education	177
Raximova F. Ijtimoiy imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan adolatni ta'minlashning ahamiyati	180
Ro'ziboyev D. Edvard Said – oryentalizm konsepsiyasining tanqidiy tahlili	183

Sayidova M. Manaviy-madaniy deformatsiyalashuvni targ'ib etuvchi texnologik vositalar va ularning ijtimoiy pedagogik oqibatlari	186
Salimova N. Peculiarities of utilizing video in english lessons	189
Salimova Sh. Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashda emotsiyalarning ahamiyatli jihatlari	192
Seydabullayeva N. Millatni asrash masalasi globallashuv davri sharoitidagi dolzarbligi	195
Tadjibayeva D. Globallashuv jarayonlarining yoshlar hayotiga ijobiy va salbiy ta'siri	197
Tangirov I. Zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosatshunoslik fanining o'rni	200
Tangirova D. Modernizm metodining paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan oqimlar	203
Tursunov A. Islom dinida ekologik va estetik ongni shakllantirishdagi asosiy g'oyalar	206
Tursunova L. Go'zallikning mohiyatini tushunishda estetikaning o'rni.....	209
Tursunova O. Mahalla – yoshlar ma'naviy tarbiyasining o'chog'i	212
Xasanov O. Yosh futbolchilarni saralashda ularni psixofiziologik xususiyatlarini o'rganish (Futbol akademiyalari misolida) ..	215
Xojiqulov N. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'g'il bola tarbiyasiga oid qarashlarining o'ziga xosligi.....	219
Xoliqulov M. Markaziy Osiyo davlatlari geomafkuraviy siyosatining rivojlanish tendensiyalari	222
Xolov Sh. Iqtisodiy taraqqiyot omillari: iqtisodiy- falsafiy talqin	225
Khudayberganov G., Khudayberganova M. Discursive teaching methodology for ecology students.....	228
Xudayberdiyev E. Atom fizikasida korpuskulyar – to'lqin dualizmini ichki integratsiya asosida o'qitish metodikasi	231
Xudoyarov J. Turon madaniyatining jahon madaniyatidagi o'rni.....	234
Xujanov E. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ixtisoslik fanlari bo'yicha mustaqil ta'limini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari	237
Hakimova D. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini shakllantirishning ustuvor tamoyillari va muhim omillari.....	240
Hamroyev S., Umarova G., Dalimova S. Biologiya darslarida biokimyo to'garaklari orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari...	242
Xamraxonova N. Bolalik Roald Dal nigohida: bola qahramonlar tipologiyasi, ichki dunyosi va ijtimoiylik tahlili.....	245
Sharipova G. Sa'diy Sheroziyning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga doir qarashlarining ustuvor yo'nalishlari	248
Шахмурова Г. Искусственный интеллект в обучении естественным наукам	251
Sheraliyev N. O'zbekiston va Tojikiston respublikalarining madaniy sohadagi hamkorligi	254
Shokirov T. O'zbek milliy maqom san'atida ko'p ovozlik masalalari.....	257
Egamberganova G. Blended learning approaches: combining traditional methods with technology for effective speaking practice	259
Yuldashev M. "Informatika fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari va zamonaviy tendensiyalari".....	261
Yusubov J. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining ijtimoiy jihatdan rivojlantirish zarurati	264
Yakubov S. AQSH: multikulturalizm muqobil etnik siyosat sifatida	267
Yakubova F., Ro'zumova G. O'rta Osiyo davlatlarida xitoy tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishining o'rganilishi	271
Filologiya	
Abdullaev Z. A contrastive analysis of reduction-based informal forms of anthroponyms in uzbek and german	274
Abdirazzakova S. Kiberxavfsizlik terminlarining pragmatik xususiyatlari	278
Abdurakhmanova Z. The features of legal term translation and the essence of the pragmatic approach in the translation process	281
Abdusalomova D. Fojiali va garmonik dunyoqarash	284
Adilova F. The themes of home, nature, and redemption in Frances Burnett's works	287
Akhmedjanova D. Genesis of artistic psychologism in literary studies: scientific-theoretical foundations.....	290
Ahmadova U. Zamonaviy perifrastik leksika.....	293
Achilova N. Nemis va o'zbek tillarida hund-it animalizmining struktur va semantikasi.....	297
Yodgorova X., Asadov M. O'zbek tilidagi inson xarakteridagi sifat va holatni bildiruvchi iboralar hamda ularning ingliz tiliga tarjimasi	300
Jurabayeva D., Jalolova Sh. Diachronic approach to the study of converb constructions of manner	303
Xiaowei Y. Research on language translation services for major sporting events	306
Madaminova M. Xurshid Davron she'riyatida voqeaband lirika.....	309
Majidova M. Issues of creating general analysis principles of kinesic gestures	312
Muratkhojaeva F. Antroposentrik paradigmada kognitiv tilshunoslik nazariyasi	315
Mustafayev Sh. Virtual kommunikativ makonning o'ziga xos xususiyatlari	318
Otaxonova M., Ergashova B. Italian tilida undov so'zlarining nutq emotsionalligini oshirishdagi o'rni (Manzonining "I Promessi sposi" asari misolida).....	321
Ochilov X. Ingliz va o'zbek tillarida insonning ma'naviy dunyosi tushunchalarining lingvokulturologik xususiyatlari	325
Samandarova N. Fransuz va o'zbek tillarida direktiv fe'llarning funksional-semantik xususiyatlari	328
Saparov M. Neyrolingvistik tadqiqotlarda miya faoliyati talqini va tahlilining nazariy asoslari	331
Turg'unova F. O'zbek va ingliz sarlavhalarida grammatik kompressiyaning o'quvchi psixologiyasiga ta'siri lingvistik va pragmatik yondashuv	334
Tursunova M. Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari	337
Usmonova Sh. Gazeta matnida antistandartlik hodisasi	340
Xasanov N. Ahmad Yassaviyning Anado'ludagi izdoshi – Aziz Mahmud Hudoiy	343
Ergashova B. O'zbek folklorshunosligining tarixi va taraqqiyoti.....	346
Yunusov M. Davlat organlarida mediasavodxonlikning rivojlanish tarixi	349
Yaqubova Y. The concept of stepmotherhood and its influence on negative character	352



UO'K: 81'373.612.2.004.14:811.512.133

Umidaaxon AHMADOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.d. (PhD)
E-mail: u.s.ahmadova@buxdu.uz
<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>
Tel: 91.244.91.45

BuxDPI professori, f.f.d X. Xaitov taqrizi asosida

MODERN PERIPHRASTIC LEXICON

Annotation

The article discusses periphrases – objects, events, and phenomenon not with their actual names, however through their characteristic features using descriptive methods. As a stylistic means, periphrases can enhance speech with elevation and imagery, improve the lexicon in response to social development demands, and allow speakers to avoid repetition and redundancy in communication. This, in turn, encourages eloquence in the speaker and philosophical consideration in the listener. In addition, the article also explores how scientific and technological advancements influence linguistics, contributing to the emergence of modern periphrastic lexicon, supported by factual samples. Periphrases can add beauty and appeal to speech, these means can make texts more aesthetic and enjoyable for readers.

Key words: linguistics, periphrasis, domain, modern lexicon, time, era, language, speech, discourse, science, education, technology, development.

СОВРЕМЕННАЯ ПЕРИФРАСТИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКА

Аннотация

В статье перифраз – это процесс выражения характерных особенностей предметов, событий, явлений не их названиями, а описательным методом, как стилистический инструмент, он придает речи подъемность, образность, обогащает словарный запас на основе о требованиях развития общества. Существуют мнения, что оно позволяет избежать повторов и повторов в речевом процессе, побуждает говорящего к красноречию, а слушателя к философской наблюдательности. Обсуждается и доказывается на фактических примерах тот факт, что развитие науки и техники оказывает непосредственное влияние на языкознание и появление современной перифрастической лексики. Перифразы придают речи красоту и очарование, делают текст более эстетичным и приятным для читателя.

Ключевые слова: языкознание, перифраз, сфера, современная лексика, время, период, язык, речь, язык, наука, образование, технология, развитие.

ZAMONAVIY PERIFRASTIK LEKSIKA

Annotatsiya

Maqolada perifrazalar – predmet, voqea va hodisalarning o'z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi xususiyatlarini tasviriy usul orqali ifodalash jarayoni, uslubiy vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etishi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitishi, nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan, qochish imkonini berishi, notiqni so'zamlilikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undashi to'g'risidagi qarashlar keltirilgan. Fan va texnika taraqqiyoti bevosita tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatishi, zamonaviy perifrastik leksikaning vujudga kelishi xususida mulohaza yuritilib, faktik misollar orqali dalillangan. Perifrazalar nutqqa go'zallik va jozibadorlik baxsh etadi, ular yordamida matn yanada estetik va o'quvchi uchun yoqimli bo'ladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, perifraza, soha, zamonaviy leksika, vaqt, davr, til, nutq, lison, fan, ta'lim, texnika, taraqqiyot.

Kirish. Tildagi har bir tasviriy ifodaning paydo bo'lish vaqti bo'ladi. Masalan, og'ir va uzoq mehnat mahsuli bo'lgan – paxtani “oq oltin” deb atash paxta yakkahokimligi davrlarida yaratilgan. Chunki, o'sha davrlarda paxta haqiqatdan ham “oltin”ga tenglashtirilgan.

O'zbek tilidagi “dala malikasi” tasviriy ifodasi undan ham avvalgi davrlarning mahsulidir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekiston hududida ham makkajo'xori juda ko'p ekila boshlangan. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotini malikaga o'xshatish o'sha davr matbuotining natijasidir. Hatto, gazetalarda “Dala malikasiga keng yo'l!”, “Dala malikasini ko'paytiraylik” singari shiormonand gaplar bot-bot uchray turgan [7].

Tasviriy ifodalarning yaratilishi tilning barcha davrlari uchun birday umumiy emasligi aniqlangan. Masalan, “*odam ush-shuaro*” (shoirilar Odam Atosi Rudakiy), “*amiri muqarrab*” (Alisher Navoiy), “*amir ul-umaro*” (Muhammad

Solih), “*Ka'bayi maqsud*” (Xoja Ahror Valiy) kabi perifrazalarning yaratilish vaqti eski o'zbek tili davriga to'g'ri keladi. Biroq, eski o'zbek tili davrida tasviriy ifodalar bugungidek ko'p bo'lmagan yoki uning qo'llanish doirasi barcha sohalarni qamrab olmagan, deyish mumkin. Tasviriy ifodalar, asosan, ommaviy axborot vositalari tilining ajralmas qismi bo'lib xizmat qilib kelgan.


Perifrazalar hozirgi o'zbek tilida ko'plab vujudga kela boshlagan. Masalan, “*zangori ekran*” – televizor, “*zangori olov*” – tabiiy gaz, “*kumush tola*” – ipak kabilar XX asr tafakkurining mahsuli hisoblanadi. “*Hayotimiz qomusi*” – konstitutsiya perifrazasi esa tilimizda mustaqillik davrida paydo bo'lgan.

Ba'zi perifrazalar juda muvaffaqiyatli chiqadi va tilda tez ommalashadi. Oddiy odamlarning ham tiliga tushadi hamda kundalik nutqning tarkibiy qismiga aylanadi. Ular orasida bir emas, ikki va undan ortiq obyektlarni

anglatadiganlari ham uchraydi. Masalan: “qora oltin” – ko‘mir, neft; “samo lochini” – burgut, uchuvchi; “asr vabosi” – OITS, OIV, giyohvandlik va h.k. Yoki, aksincha, bir tushunchani ifodalash uchun bir necha perifrazalardan ham foydalanish mumkin. Masalan: XX asr tushunchasini ifodalash uchun “texnika asri” va “atom asri” perifrazalarini qo‘llaymiz.

Shunday tasviriy ifodalar ham mavjudki, ular vaqt o‘tishi bilan iste‘moldan chiqadi va tilning unumsiz fondiga o‘tadi. Vaqti kelib esa butunlay xotiradan o‘chadi. Chunki ular ifodalaydigan tushunchaning o‘zi eskiradi, til egalari hayotida o‘sha tushunchaga ehtiyoj qolmaydi. Masalan, “dala malikasi” perifrazasi makkajo‘xori o‘simligi O‘zbekistonda ko‘p ekilgan davrlar matbuoti tilida faol qo‘llangan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib ushbu perifraza keng ishlatiladi, deb bo‘lmaydi. Shuningdek, “po‘lat etak” (paxta terim mashinasining bunkeri), “po‘lat ot” (traktor) kabi perifrazalarning ham qo‘llanish doirasi bugungi kunda g‘oyat chegaralangan, deyish mumkin. Bu holat tasviriy ifodalarning tilda yashash tarzi bilan jipslashgan holda mavjudligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda nafaqat yurtimizda, balki butun jahonda fan-texnika, ta‘lim, sport, tibbiyot, iqtisodiyot hamda shu kabi inson hayotining barcha jabhalarini keng qamrab olayotgan sohalarining mislsiz



1.1-chizma. Perifrazalar tarkibiy qismlari

Perifrazada dominant bu – perifrazaning manosi ifodalaydigan asosiy so‘z hisoblanib, perifraza qaysi so‘z uchun izoh vazifasini bajarmoqda, shuni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Perifrazada eksplikant - perifrazaning ma‘nosini aniqlashtiruvchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari sanalib, bir so‘z bilan aytganda, izohlovchi vazifasini bajaruvchi so‘zlar jamlanmasi hisoblanadi. Perifraza elementlari bu umumiy tushunchadir, u perifrazani tashkil etuvchi dominant va eksplikantlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ham yangidan-yangi perifrazalar nutqimizni boyitib bormoqda. Fan va texnika taraqqiyoti bevosita tilshunoslikka ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Unda yangidan yangi yo‘nalishlar shakllanib, mavjudlari tarkibida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, perifrazalar ham texnika rivojlanishi natijasida yangi ma‘noga ega birliklar evaziga yanada kengaydi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Ular zamonaviy perifrastik leksika atamasi ostida yuritiladi. Bu zamonaviy tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, u yangi tushunchalar, texnologiyalar, ijtimoiy hodisalar va g‘oyalarni ifodalash uchun paydo bo‘lgan perifrazalarni o‘z ichiga oladi. Bu leksika doimiy ravishda yangilanib turadi, chunki tilning o‘zi ham doimo rivojlanib, yangi tushunchalarni o‘zlashtirib boradi.

Aytish joizki, bugungi kunda tibbiyot sohasi nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo miqyosida ham kundan-kunga rivoj topib borayotgan soha hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Soha doirasida dunyo bilan tajribalar almashilmoqda. Bu esa bevosita sohaning va shu bilan birga soha leksikasining ham boyishiga zamin yaratmoqda. Quyida keltirmoqchi bo‘lgan misollarimiz tibbiyot sohasidagi ayrim tushunchalarni obrazli tarzda ifodalovchi zamonaviy tasviriy ifodalarga namuna bo‘la oladi. Jumladan, *salomatlik posbonlari* (shifokorlar), *zamonaviy meditsina otasi* (Gippokrat), *tog‘yon bag‘ridagi sihatgoh* (Zomin sanatoriyasi), *davoning ilk qadami* (shifokor ko‘rigi), *yarim davo* (aniq tashxis), *qon bosimining termometri* (limon),

shiddat bilan rivoj topib borayotganligi ushbu sohalarini yangidan-yangi tushunchalar bilan boyitib bormoqda. Tabiiyki, tilimiz ham o‘zining lingvistik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ushbu yangi tushunchalarning insonlarga yanada tushunarli bo‘lishi va ifoda ko‘lamini keng tarzda yetkazib berish maqsadida tasviriy ifodalar bilan boyib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kirib bormagan xonadoni qolmagan va barcha soha vakillarining, barcha insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanishga ulgurgan “internet” tushunchasini bildiradigan “virtual olam” hamda futbolchi qizlarni ifodalaydigan “yashil maydon malikalari” kabi perifrazalari istiqbol yillarida yaratilgan va bugungi kunga kelib tilimizda keng ommalashishga ulgurgan.

XX arning ikkinchi yarmidan keyin yaratilgan “bahor elchisi” (qaldirg‘och), “bahor darakchisi” (boychechak), “baraka urug‘i” (chigit), “kumush choyshab” (qor), “ilm maskani” (kutubxona), “bilim manbayi” (kitob) singari perifrazalar hozirgi kunda ham nutqimizda faol tarzda ishlatilib kelinmoqda. Boisi, bu kabi tasviriy ifodalar anglatadigan voqelikning eskirmasligidir.

Bir so‘zni boshqa birliklar yordamida ifodalash perifrazalar (tasviriy ifodalar) termini bilan yuritiladi. Perifrazalar tarkibiy qismlarga bo‘linib, uni quyidagicha tasniflash mumkin [10] (1.1-chizma qarang):

biokimyoviy fabrika (jigar), *haqiqiy najot*, *haqiqiy vitamin bombasi* (aloy), *hayot ildizi* (jenshen), *issiq qum mo‘jizalari* (psammoterapiya) kabi shaxsni, o‘rin-joy va narsa-hodisani ifodalovchi funksional-semantik perifrazalarni uchratishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Sport barcha zamonlarda insonlar hayotining eng ommabop va keng ko‘lamli sohalaridan biri bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham butun dunyo miqyosida insonlarning qiziqishlariga eng ko‘p sazovor bo‘lgan soha sifatida qaraladi. Shu boisdan sportning turli yo‘nalishlarida o‘ziga xos neologizmlar, perifrastik birliklarning paydo bo‘lishi tabiiy. Jumladan, *millionlar o‘yini* (futbol); *yashil maydon* (stadion); *g‘alaba shohsupasi* (sovrindorlar taqdirlanadigan maxsus joy); *charm qo‘lqop ustasi* (bokschi); *zamonaviy gladiator* (karatechi) va shu kabi ko‘plab perifrazalar nutqimizda allaqachon ommalashishga ulgurgan bo‘lsa, *mojaroli Olimpiada* (Parij Olimpiadasi – 2024), *Parijdagi qahramon* (Akmal Hasanov); *taxtdan tushgan dzyudo malikasi* (Uta Abe); *O‘zbekning To‘marisi* (Diyora Keldiyorova) va boshqa shu kabi tasviriy ifodalar, aynan, 2024-yilgi yozgi Olimpiada o‘yinlaridan keyin ommaviy axborot vositalarida muxbirlar nutqida tez-tez takrorlanadigan bo‘ldi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy perifrastik leksikaning ba‘zi xususiyatlari jamiyatdagi taraqqiyot bilan bevosita bog‘liq sanalib, uning rivojlanishi til tarkibiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Jumladan, internet va texnologiyadagi shiddatkorlik bilan kechgan taraqqiyot natijasida tasviriy ifodalar ham shunga muvofiq shakllanib bormoqda. XXI asrda internet va texnologiya hayotning barcha sohalariga ta‘sir ko‘rsatmoqda, shuning uchun yangi perifrazalar ham bu sohalar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalash uchun tilimizga kirib kelayotganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan: **Taraqqiyot kushandasi – korrupsiya (Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi! Bu jumla bot-bot qulog‘imizga chalinib tursa-da, illatning o‘zidan butkul qutulish, jamiyatni tozalash qiyin kechayotganday...)** [8]; **Globallashuv davri – XXI asr** (Davlat va siyosat arboblari,

3. "Ma'rifat", 2014, 18-yanvar.
4. "Ma'rifat", 2014, 23-iyul.
5. "Qishloq hayoti", 2014, 27-mart.
6. <https://kun.uz/news/2024/12/22/qotil-chatbot-kasallikni-oldindan-aniqlaydigan-aqlli-uzuk-va-super-kompyuter-texnodayjest>
7. https://oz.sputniknews.uz/author_odilov
8. <https://uzsuv.uz/en/posts/4034>
9. www.google.com
10. www.wikipedia.org